



XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

SOTSIOPRAGMATIK MUVAFFAQIYATSIZLIKLAR VA ULARNI MULOQOT MUVAFFAQIYATIGA TA'SIRLARI

G'oziyeva Mastona Toshtemirovna
Alfraganus universiteti katta o'qituvchisi
mastonagoziyeva@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179301>

Annotatsiya. maqolada chet til o'qitish metodikasining muhim jihatlari muhokama qilindi. Jumladan, chet tilida muloqot chog'ida sotsiopragmatik muvaffaqiyatsizliklarni suhbatdoshlar o'zaro munosabatiga salbiy va ijobiy ta'sirlari va ularni bartaraf etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mazkur kompetensiyani shakllantirishda maqbul sanalgan samarali texnologiyalar taqdim qilingan.

Kalit so'zlar: chet til o'qitish, sotsiopragmatik kompetensiya, pragmatika, muloqot ko'nikmalari, pragmatolingvistika, diskurs, taqiq so'zlar.

Kirish. Sotsiopragmatikaga ta'rif berishimizdan avval pragmatikaga bir oz to'xtalib o'tamiz. Zero sosiopragmatika: pragmatika va sotsiolingvistikaning kesishuvida hosil bo'ladi. Pragmatikaga kontinental Yevropacha ta'rif: lingvistik hodisalarning xulq-atvor shaklida ishlatilishiga nisbatan umumiy kognitiv, ijtimoiy va madaniy nuqtai nazari. Sosiopragmatika dastlab Geoffrey Leech (1983) va Jenni Tomas (1981, 1983). ishlarida kuzatiladi. Jamiyat bilan bog'liq holda tildan foydalanish aynan sosiopragmatikaga berilgan to'g'ri ta'riflardan biridir. Sosiopragmatika Anglo- Amerika pragmatik ko'rinishida aniq belgilangan merosga ega. Pragmatika-bu ma'lum bir kontekstdagi til nazariyasi. Jamiyatlarning xususiyatlari va ularning a'zolari ko'proq mahalliy darajalarda , ya'ni madaniyatga xos tildan foydalanishi sosiopragmatikaga xos bo'lsa , unversal pragmatik tamoyillar aksincha mahalliy bo'lmagan tildan foydalanishni targ'ib qiladi . Xushmuomalalik tamoyili turli madaniyatlarda, til jamoalarida va ijtimoiy vaziyatlarda turlicha amalga oshiriladi:

Chinese vs. Western's perspective of politeness:

- Greetings:

Western	Chinese
- Hello	-Have you eaten?
- How are you?	-Where are you going?
-Talking about the weather	-What are you doing here?

Sosiopragmatika tildan foydalanish bo'yicha " general "(umumiy) bo'lmagan, balki muayyan " local" (mahalliy) tildan foydalanish shartlarga e'tibor beradi (Leech:1983). Sosiopragmatikaning asosi bu muloqotchilarning ma'lum ma'nolarni yaratish va muayyan ijtimoiy pozisiyani amalda qo'llash uchun ko'proq umumiy



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

me'yorlardan foydalanish usuli. Eng mahalliy matn bu suhbatdoshlarning bevosita va qo'shma matni hisoblanadi. Ijtimoiy vaziyat (shu jumladan nutq hodisalari, topshiriq turlari, strukturalar va boshqalar..) nisbatan ommaviy hisoblanadi; Madaniyatlar (milliy/mintaqaviy madaniyatlar, institusional madaniyatlar va boshqalar..) ko'proq ommaviy sanaladi. Culpeperning(2009) ta'kidlashicha sosiopragmatika birinchi navbatda kontekst markazini tashkil etuvchi hodisalar bilan bog'liq bo'lishi kerak. Sosiopragmatika muloqotchilarning o'zaro ijtimoiy kelib chiqishi va turli xil omillar (masalan, yosh, jins, sinf) odamlarni ma'lum olmoshlarni tanlashga yetaklishi bilan boshlanishi mumkin.

Pragmalingvistika: tilning tarkibiy resurslari nuqtai nazaridan tildan foydalanishni o'rganadi. Kristal (2008). Bu tilning olmosh tizimidan boshlanishi mumkin. Insonlar bir qator hurmat va yaqinlik kabi munosabatlarni ifodalash uchun turli darajadagi shakllarni tanlaydilar. Sosiopragmatika ishtirokchilarining o'zaro ijtimoiy kelib chiqishi bilan boshlanishi va turli xil omillar (yosh, jins, tabaqa) odamlarni ma'lum olmoshlarni tanlashga yetaklashini tekshirishi mumkin. Ijtimoiy vaziyatlar mikro "lingvistik yo'naltirilgan" "pragmalingvistika" va makro "ijtimoiy yo'naltirilgan" "sosiopragmatika" o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi.

Pragmalingvistik va sosiolingvistik nuqtai nazardan xushmuomalalik tamoyillari.

Pragmalinguistics	Sociopragmatics
<p>How politeness is conveyed or manifested linguistically. – Use of questions. – Modal auxiliaries. – Hypothetical past tense. – Could you write it down for me?</p>	<p>Scale of politeness varies according to social factors; age, gender, social status, - Siblings of the same age ; lower level of indirectness. – Elder brother , sister. –</p>

Pragmatikani umumiy ijtimoiy madaniy diqqat bilan o'rganib chiqish kommunikativ xulq-atvorni o'zaro muloqotning madaniyatlararo jihati ko'p tillilik va lingua franca, kross-lingvistik kabi taqqoslashni o'z ichiga oladi. Madaniyatlararo muloqot turli madaniyatlarga mansub shaxslardan tashkil topgan ijtimoiy kontekstda paydo bo'ladigan muammolarni tavsiflaydi. Masalan, xitoyliklar va amerikaliklar. Lingua franca: So'zlovchilar turli xil madaniyatga mansub bo'lib: bunday muloqot pragmatik muvaffaqiyatsizliklarga sabab bo'ladi. Muloqotchilar so'zlarning tarkibini turli xil vositalar, shu jumladan ko'makchilar, taqlid so'zlar va signal so'zlar bilan



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

qanday o'zgartirishi sosiopragmatika bilan bog'liq. Masalan, yeah. Katta yoshlilar va o'spirinlar o'rtasidagi muloqotdagi (masalan: and so forth, staff like that) hamda ingliz tilining standard va nostandart turlari orasidagi farqlar ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan. Jumladan, biror kishining geografik joylashuvini ma'lum iboralar yordamida taxmin qilish mumkin. Sotsiopragmatika nutqiy aktlar va xushmuomalalik tamoyillari turli xil talqin darajalarini o'rganadi. Shu munosabat bilan Blum-Kulka (1989:58) til sohiblari muloqot chog'ida biror ma'lumot so'rash uchun bilvosita shakldan foydalangan (*Can you tell me?*) bir paytda, ivrit tilida so'zlashuvchilar ayni vaziyatlarda ko'proq to'g'ridan -to'g'ri shakldan foydalanadilar deb ta'kidlaydi. Ushbu holatda nutqiy aktlardan mos ravishda foydalanaolmaslik ko'pincha turli xil tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Nutq aktlarini o'rganish diskurs vazifalariga (*DCT*) asoslanadi. Sotsiopragmatika, shuningdek, diskursning tarkibiy tashkiliy darajasining ketma-ketligi, ochilishi va yopilishi kabilar bilan bog'liq bo'lib, nutq hamjamiyati, aloqa vositasi va faoliyat turi kabi omillarga qarab turlicha amalga oshirilishiga aloqador sanaladi. Masalan, Classroom discourse. Sinfidagi tashkiliy qism quyidagi tartibda amalga oshiriladi Tashabbus-Javob-Fikr-mulohaza. (*Initiative-Response-Feedback*). Pragmatik muvaffaqiyatizlik. "Kross – madaniy" (*cross-cultural*) atamasi Tomas tomonidan nafaqat mahalliy va mahalliy bo'lmagan o'zaro ta'sirlarni, balki umumiy lingvistik yoki madaniy bir xil kelib chiqishga ega bo'lmagan ikki inson o'rtasidagi har qanday aloqani tasvirlashning qisqacha usuli sifatida ishlatilgan. Pragmatik muvaffaqiyatsizlik Tomas (1983) tomonidan aniqlangan bo'lib, uni "madaniyatlararo aloqa buzilishi" ya'ni aytilgan so'z aynan qaysi ma'noni anglatishini tushunolmaslik deb ta'riflagan. Pragmatik kompetensiya esa yuqorida ta'kidlaganimizdek, ma'lum bir maqsadga erishish va tilni kontekstda tushunish uchun tildan samarali foydalanish qobiliyati. Tomas (1983) pragmatik muvaffaqiyatizlikni pragmalingvistik va sotsiopragmatik muvaffaqiyatizlikka ajratadi. Pragmalingvistik muvaffaqiyatsizlik o'quvchi to'g'ri nutq harakatini bajarishga harakat qiladi, lekin noto'g'ri lingvistik vositalardan foydalanganda sodir bo'ladi. Bu tillararo muayyan xatolar va pragmatik uzatish natijasida yuzaga kelishi mumkin. Salbiy pragmatik uzatishda pragmatik tamoyillar farq qiladi shuning uchun o'quvchining idrokida bo'shliq hosil bo'ladi va muvaffaqiyatsiz muloqotga sabab bo'ladi. Masalan Ivrit til sohiblari kabi to'g'ridan -to'g'ri tarjimadan foydalanish. - Nutqning bilvosita ekanligini tan olmaslik. - Gvahi & Johnson (1993)ning ta'kidlashicha arab o'quvchilar uzr so'rashga ko'proq moyil bo'lsalarda inglizzabon suhbatdoshlar kamroq uzr so'raydilar. Bu ham o'z navbatida pragmalingvistik muvaffaqiyatsizliklarga sabab



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

bo'ladi. Sosiopragmatik muvaffaqiyatizlik esa amaldagi tilda mavjud ijtimoiy shart - sharoitlarda hushyorlikni yetishmasligi yoki e'tiborsizlik tufayli sodir bo'ladi. Tomas sosiopragmatik muvaffaqiyatsizlikka misol sifatida "taboos"larni taqdim etdi. "Taboo" so'zlar yoki xarakterlar ma'lum bir jamiyatda mavjud odob axloq qoidalari uchun zid hisoblanadi.(Fromkin; 2014). Quyidagi suhbat taboo ga misol bo'la oladi mahalliy inglizabon Sara Koreaga tashrif buyuradi korealik Laura Saraga kiyimlarini joylashda yordam ko'rsatmoqda(Montgomery and Tinsley-Kim, 2001: 75):

Laura: What nice things you have!

Sara: Thank you. It took me a long time to pack!

Laura: But your clothes are so tiny. You are too thin! How much do you weigh?

Sara: Uh, well ... I'm not sure.

Laura: Not sure! You're about 52 or 54 kilos, aren't you?

Sara: Uhm well....

Laura: My scale is right in the bathroom there. Let's weigh you now.

Sara: Uhm thank you, really, that's OK

Eun-Sook (2006:7)ning ta'kidlashicha koreyslar o'z tanishlaridan yoshi vazni dini bo'yi va hkz lar haqida savollar so'rashi tabiiy hol bo'lsa, aksincha G'arb madaniyatida bu kabi shaxsiy savollar berish "taboo" hisoblanadi. Bu kabi, "taboo" lar muloqot chog'ida sotsiopragmatik muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.Quyida yana bir misol keltiramiz:

A Chinese student (A) meets his friend (B) who is an American in the campus and they have a talk.

A: You look pale. What's the matter?

B: I am feeling sick. A cold, maybe.

A: Go and see the doctor. Drink more water. Did you take any pills? Chinese medicine works wonderful. Would you like to try? Put on more clothes. Have a good rest.

B: You're not my mother, are you?

Xitoyliklar boshqa insonlarga g'amxo'rliklarini ko'rsatishga odatlanishgan bo'lib bu xitoy madaniyatiga singdirilgan aksincha amerika madaniyatida esa insonlar yolg'izlikni ma'qul ko'rishadi ular bilan xitoyliklar kabi do'stona munosabatda bo'lish ularni hayoti vayron qilish bilan barobar sanaladi. Bunday turli



XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

tuman ijtimoiy me'yorlar mavjudligi pragmatik muvaffaqiyatsizliklarga sabab bo'ladi.

Sotsiopragsmatik strategiyalar chet tilini o'rganuvchilardan grammatika, fonologiya va leksikani bilish, shuningdek, til sohiblarining qadriyatlar va munosabatlar, e'tiqodlar va me'yorlar tizimi bo'lgan madaniyatining ayrim xususiyatlari va o'ziga xos belgilarini bilishni talab etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, muloqot chog'ida madaniy farqlarga e'tibor qaratish yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kulgili vaziyatlar, tushunmovchiliklar, yoqimsiz oqibatlar va ba'zida xijolatli, umidsizlik, hatto g'azabga olib keluvchi holatlarga yo'l qo'ymaydi hamda muloqotning muvaffaqiyatli yakunlanishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarga o'rganilayotgan tilda kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lish imkoniyatini yaratish chet tillarini o'qitish mashg'ulotlaridagi muhim vazifalardan biri bo'lishi kerak. Asosan, ijtimoiy, pragmatik va madaniy elementlarga bog'liq bo'lgan nutq qoidalari sotsiolingvistik kompetensiya bilan uzviy bog'langan. Har qanday tilda kechirim so'rash yoki iltimos qilish adresat yoki adresantning ijtimoiy mavqeiga, yoshi, jinsi yoki boshqa har qanday ijtimoiy omilga bog'liq bo'lishi mumkin. til o'rganuvchi mukammal talaffuz va grammatik bilimga ega bo'lishi mumkin, ammo u ingliz tilidagi kontekstli nutq cheklovlari bilan tanish bo'lmaganligi sababli, kechki ovqat paytida erkak yoki ayol mezbondan uzr so'rash qoidalaridan noto'g'ri foydalanib, muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin va u o'z kommunikativ maqsadiga erisha olmaydi, aksincha u uy egalarida qo'pol tanqid yoki shikoyat qilayotgandek taasurot qoldiradi. Idiomalar, iboralar chet tilini o'rganuvchilar tomonidan so'zma-so'z tarjima qilinishi ham madaniy tushunmovchilikka olib kelishi mumkin. *'he is a fly on the wheel'* "U g'ildirak ustidagi pashsha emas balki U o'ziga ortiqcha baho beradi" deb tarjima qilinishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Leech, Geoffrey N. (2014) *The Pragmatics of Politeness*. New York: Oxford University Press
2. Thomas, Jenny A. (1983) *Cross-cultural pragmatic failure*. *Applied Linguistics* 4.2: 91- 112.
3. Culpeper, Jonathan (1996) *Towards an anatomy of impoliteness*. *Journal of Pragmatics* 25: 349-67.
4. Blum-Kulka, Shoshana (1987) *Indirectness and politeness in requests: Same or different?* *Journal of Pragmatics* 11: 131-146
5. Thomas, Jenny A. (1981) *Pragmatic failure*. University of Lancaster: Unpublished M.A. dissertation
6. Crystal, D. (1998) *A Dictionary of Linguistics and Phonetics* (4th ed.). Oxford: Blackwell Publishers.
7. Montgomery, P., & Tinsley-Kim. K. (2001). *Cultural dialogue*. *Selected Reading Notes for Intercultural and Cross-cultural Communicatio*. Seoul: SMU-TESOL.
8. Fromkin, V. A. (ed.). 1980. *Errors in linguistic performance*. New York: Academic Press.